QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.183

UO‘K: 378.015.31:811.134.2

RAQAMLI TA’LIM MUHITIDA TALABALARNING MADANIYATLARARO KOGNITIV DUNYOQARASHI: MOHIYATI, TARKIBIY TUZILMASI VA SHAKLLANTIRISH YONDASHUVLARI (ISPAN TILI MISOLIDA)

Xalillayev Adilbek Kurambayevich
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ispan tili nazariy fanlar kafedrasi dotsenti., filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
E-mail: adilbek.xalillaev@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada oliy ta’lim muassasalari talabalarida madaniyatlararo kognitiv dunyoqarashni raqamli ta’lim muhitida shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari ispan tili misolida tahlil qilingan. Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo sezgirlik, plyurilingval va plyurikultural kompetensiya tushunchalarini qiyosiy tahlil qilish asosida “madaniyatlararo kognitiv dunyoqarash” tushunchasining mualliflik ta’rifi berilgan. Uning kognitiv, motivatsion-aksiologik, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv komponentlari hamda madaniyatlararo, kompetensiyaviy, kognitiv, aksiologik va raqamli-pedagogik yondashuvlarni integratsiyalash zarurati asoslangan.

Kalit so‘zlar: madaniyatlararo kognitiv dunyoqarash, raqamli ta’lim muhiti, ispan tili, madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, konsept, dunyoning til manzarasi, refleksiya, integrativ yondashuv.

МЕЖКУЛЬТУРНОЕ КОГНИТИВНОЕ МИРОВОЗЗРЕНИЕ СТУДЕНТОВ В ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЕ: СУЩНОСТЬ, СТРУКТУРА И ПОДХОДЫ К ФОРМИРОВАНИЮ (НА ПРИМЕРЕ ИСПАНСКОГО ЯЗЫКА)

Аннотация. В статье на материале испанского языка рассматриваются теоретико-методологические основы формирования межкультурного когнитивного мировоззрения студентов вузов в цифровой образовательной среде. На основе сопоставительного анализа понятий межкультурной коммуникативной компетенции, межкультурной чувствительности, плюрилингвальной и плюрикультурной компетенции предложено авторское определение понятия «межкультурное когнитивное мировоззрение». Обоснованы его когнитивный, мотивационно-аксиологический, коммуникативно-деятельностный и рефлексивный компоненты, а также необходимость интеграции

межкультурного, компетентностного, когнитивного, аксиологического и цифрово-педагогического подходов.

Ключевые слова: межкультурное когнитивное мировоззрение, цифровая образовательная среда, испанский язык, межкультурная коммуникативная компетенция, концепт, языковая картина мира, рефлексия, интегративный подход.

UNIVERSITY STUDENTS' INTERCULTURAL COGNITIVE WORLDVIEW IN A DIGITAL LEARNING ENVIRONMENT: ESSENCE, STRUCTURE AND APPROACHES TO ITS DEVELOPMENT (THE CASE OF SPANISH)

Abstract. The article examines the theoretical and methodological foundations for developing university students' intercultural cognitive worldview in a digital learning environment, taking Spanish language teaching as a case. Based on a comparative analysis of intercultural communicative competence, intercultural sensitivity and plurilingual and pluricultural competence, the author proposes a definition of the "intercultural cognitive worldview". Its cognitive, motivational-axiological, communicative-activity and reflective components are substantiated, together with the need to integrate intercultural, competence-based, cognitive, axiological and digital-pedagogical approaches.

Keywords: intercultural cognitive worldview, digital learning environment, Spanish language, intercultural communicative competence, concept, linguistic picture of the world, reflection, integrative approach.

Kirish

Globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari oliy ta'lim oldiga talabalarga xorijiy tilni o‘rgatish bilan birga, ularni o‘zga madaniyat vakillarining qadriyatlari, fikrlash tarzi va xulq-atvorini anglashga, madaniy hodisalarni o‘z madaniyati bilan qiyoslab xolis baholashga tayyorlash vazifasini qo‘ymoqda. O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi[71] hamda Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasida[72] ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangani ushbu masalaning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Kuzatishlarimiz ko‘rsatishicha, ispan tilini o‘qitishda Ispaniya va Lotin Amerikasi xalqlarining rang-barang madaniyati ko‘pincha bayramlar, taomlar va diqqatga sazovor joylar haqidagi alohida ma'lumotlar bilan cheklanib, raqamli resurslar asosan axborot manbai sifatida qo‘llanilmoqda. Natijada talaba o‘zga madaniyat haqida bilimga ega bo‘lsa-da, uni o‘z madaniyati bilan qiyoslash, madaniy hodisani uning ichki mantiqidan kelib chiqib talqin qilish va o‘z qarashlarini refleksiv baholash tajribasini yetarlicha egallamaydi.

[71] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O‘zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida"gi Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/4545884

[72] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. – URL: https://lex.uz/docs/5841063

Maqolaning maqsadi - “madaniyatlararo kognitiv dunyoqarash” tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlashtirish, uning tarkibiy tuzilmasini belgilash hamda raqamli ta’lim muhitida ispan tili misolida shakllantirishning metodologik yondashuvlarini asoslashdan iborat.

Madaniyatlararo ta’lim nazariyasida M.Byramning madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya modeli yetakchi o‘rin tutadi. Olim madaniyatlararo komponentni bilimlar (savoirs), talqin qilish va bog‘lash ko‘nikmalari (savoir comprendre), kashf etish va o‘zaro ta’sir ko‘nikmalari (savoir apprendre/faire), munosabatlar (savoir être) hamda tanqidiy madaniy anglash (savoir s’engager) birligi sifatida tavsiflaydi[73]. Ulardan tanqidiy madaniy anglash madaniy bilimning qadriyatli pozitsiyaga aylanishini ifodalaydi.

D.K.Deardorffning piramidal modelida madaniyatlararo kompetensiya munosabatlar (hurmat, ochiqlik, qiziquvchanlik), bilim va ko‘nikmalar asosida shakllanib, avval “ichki natija” - nuqtai nazar tizimining o‘zgarishi (moslashuvchanlik, etnorelativ qarash, empatiya), so‘ngra “tashqi natija” - samarali va o‘rinli muloqotda namoyon bo‘ladi[74]. M.Bennett modelida esa inkor, himoya va minimallashtirish kabi etnosentrik bosqichlardan qabul qilish, moslashish va integratsiyadan iborat etnorelativ bosqichlarga o‘tish shaxs dunyoqarashining izchil qayta qurilishi sifatida talqin etiladi[75].

C.Kramsch til o‘rganuvchining ona madaniyati va o‘rganilayotgan til madaniyati o‘rtasida o‘ziga xos “uchinchi makon” yuzaga kelishini asoslab, madaniyatni o‘qitishni tayyor faktlarni uzatish emas, balki ma’no yaratish jarayoni sifatida ko‘rishni taklif etgan[76]. Yevropa Kengashining CEFR hujjatiga 2020-yilda nashr etilgan qo‘shimcha jildda mediatsiya, onlayn muloqot hamda plyurilingval va plyurikultural kompetensiya deskriptorlari kiritilgan[77]. Ispan tili ta’limi uchun bu g‘oyalar Servantes institutining “Plan curricular” hujjatida aniq mazmun kasb etib, unda “Madaniy referentlar”, “Ijtimoiy-madaniy bilim va xulq-atvor”, “Madaniyatlararo ko‘nikma va munosabatlar” inventarlari o‘quv dasturining tarkibiy qismi sifatida belgilangan[78].

Kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiyada dunyoning til manzarasi, konsept va freym tushunchalari til egalari tafakkuridagi madaniy ma’nolarning tashkil etilishini izohlaydi. G.Lakoff va M.Johnson metaforalarning kundalik tafakkurni tizimlashtiruvchi kognitiv mexanizm ekanini ko‘rsatgan bo‘lsa[79], V.A.Maslova va S.G.Ter-Minasova tilni madaniyatni aks ettiruvchi va avloddan avlodga uzatuvchi vosita sifatida talqin qiladi[80]. Muallifning “hombría”/“mardlik” konseptiga bag‘ishlangan tadqiqotida bu konseptning har ikki madaniyat

[73] Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. – Clevedon: Multilingual Matters, 1997. – P. 34.

[74] Deardorff D.K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // Journal of Studies in International Education. – 2006. – Vol. 10, No. 3. – P. 254.

[75] Bennett M.J. A developmental approach to training for intercultural sensitivity // International Journal of Intercultural Relations. – 1986. – Vol. 10, No. 2. – P. 179-196.

[76] Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. – Oxford: Oxford University Press, 1993.

[77] Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. – Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. – P. 84-87, 90-128.

[78] Instituto Cervantes. Plan curricular del Instituto Cervantes. Niveles de referencia para el español. – Madrid: Biblioteca Nueva, 2006.

[79] Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. – Chicago: University of Chicago Press, 1980.

[80] Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2001; Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – М.: Слово/Slovo, 2000.

uchun umumiy belgilari (jasurlik, ichki kuch, faollik, olijanoblik va qadr-qimmat) bilan birga milliy-o‘ziga xos jihatlari ham aniqlangan[81]. Bu esa konseptlarni qiyosiy o‘rganish samarali didaktik vosita bo‘la olishini ko‘rsatadi.

A.A.Verbitskiy raqamli o‘qitishning afzalliklari bilan birga uning psixologik-pedagogik xavf-xatarlarini ham ko‘rsatib, bu jarayonni puxta pedagogik nazariya asosida loyihalash zarurligini ta’kidlaydi[82]. R.O’Dowd esa virtual almashinuvni turli madaniy muhitdagi talabalarning pedagog rahbarligida, o‘quv dasturi doirasida tashkil etiladigan uzoq muddatli onlayn hamkorligi sifatida ta’riflaydi[83]. Respublikamizda ta’limni axborotlashtirish va raqamli pedagogika masalalari U.Sh.Begimqulov[84], N.A.Muslimov, D.N.Mamatov, Sh.B.Bekchonova, chet tillarini o‘qitish metodikasi J.J.Jalolov[85] va boshqa olimlarning ishlarida yoritilgan.

Tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda asosiy e’tibor madaniyatlararo muloqotga tayyorlik, ya’ni kompetensiya darajasiga qaratilgan bo‘lib, talaba dunyoqarashining o‘zida - madaniy hodisalarni idrok etish, talqin qilish va baholashning ichki tizimida - raqamli ta’lim muhitida ispan va o‘zbek madaniyatlarini qiyoslash asosida yuz beradigan o‘zgarishlar yetarlicha o‘rganilmagan.

Tadqiqotda psixologik-pedagogik, lingvokulturologik va lingvodidaktik adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, yaqin tushunchalarni qiyosiy-konseptual tahlil qilish, tizimli-tuzilmaviy tahlil va modellashtirish metodlaridan foydalanildi, muallifning O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida ispan tilini o‘qitish tajribasi umumlashtirildi.

Madaniyatlararo kognitiv dunyoqarashga yaqin tushunchalarni qiyosiy tahlil qilish natijalari 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Madaniyatlararo kognitiv dunyoqarash va unga yaqin tushunchalarning qiyosiy tavsifi

Tushuncha (muallif, manba)	**Asosiy e’tibor qaratilgan jihat**	**Natijaning ifodalanishi**
Madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya (M.Byram)	Xorijiy tilda muloqot uchun zarur bilim, ko‘nikma va munosabatlar	Muloqotga tayyorlik, tanqidiy madaniy anglash
Madaniyatlararo kompetensiya (D.K.Deardorff)	Samarali va o‘rinli xulq-atvorga olib boruvchi munosabat, bilim va ko‘nikmalar	Ichki (nuqtai nazar o‘zgarishi) va tashqi (samarali muloqot) natija
Madaniyatlararo sezgirlik (M.Bennett)	Madaniy farqni idrok etish va boshdan kechirish	Etnosentrizmdan etnorelativizmga o‘tish

[81] Xalillayev A.K. Ispan va o‘zbek tillarida “hombría”/“mardlik” konsepti qo‘llanishining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari: filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diss. avtoref. – Toshkent, 2022.

[82] Вербицкий А.А. Цифровое обучение: проблемы, риски и перспективы // Электронный научно-публицистический журнал «Homo Cyberus». – 2019. – № 1(6).

[83] O’Dowd R. From telecollaboration to virtual exchange: state-of-the-art and the role of UNICollaboration in moving forward // Journal of Virtual Exchange. – 2018. – Vol. 1. – P. 1-23.

[84] Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari: monografiya. – Toshkent: Fan, 2007.

[85] Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

Tushuncha (muallif, manba)	Asosiy e’tibor qaratilgan jihat	Natijaning ifodalanishi
Plyurilingval va plyurikultural kompetensiya (CEFR, 2020)	Til va madaniy repertuardan moslashuvchan foydalanish, mediatsiya	Deskriptorlarda tavsiflangan faoliyat
Madaniyatlararo kognitiv dunyoqarash (muallif talqini)	Dunyo manzaralarini qiyoslash asosida madaniy hodisalarni idrok etish, talqin qilish va baholash tizimining kengayishi	Barqaror etnorelativ pozitsiya, qiyosiy-tanqidiy tafakkur, refleksiv munosabat

Jadvaldan ko‘rinadiki, qayd etilgan tushunchalar natijani asosan kommunikativ xulq yoki uning rivojlanish bosqichlari orqali tavsiflaydi, madaniyatlararo kognitiv dunyoqarash esa bu xulqning ichki, qadriyatli-bilish asosini ifodalaydi. Shunga ko‘ra quyidagi ta’rifni taklif etamiz: madaniyatlararo kognitiv dunyoqarash - talabaning ona tili va o‘rganilayotgan xorijiy til orqali ifodalangan dunyo manzaralarini qiyoslash jarayonida shakllanadigan, madaniy hodisalarni idrok etish, tushunish, talqin qilish va baholashning barqaror tizimini ifodalovchi hamda madaniyatlararo muloqotda etnorelativ pozitsiya, qiyosiy-tanqidiy tafakkur va refleksiv munosabatda namoyon bo‘ladigan integrativ shaxsiy sifatdir.

Ushbu sifat quyidagi to‘rt komponentning birligida namoyon bo‘ladi:

- kognitiv komponent - ispan tilida so‘zlashuvchi xalqlarning tarixi, qadriyatlari, urf-odatlari va ijtimoiy-madaniy me’yorlari haqidagi bilimlar, “familia”, “honor”, “fiesta”, “sobremesa” kabi madaniy konseptlar mazmunini anglash;

- motivatsion-aksiologik komponent - o‘zga madaniyatga qiziqish, ochiqlik, hurmat va bag‘rikenglik, shu bilan birga o‘z milliy qadriyatlarini anglash va ularga tayanish;

- kommunikativ-faoliyatli komponent - madaniy kontekstga mos strategiyalarni (masalan, “tú” yoki “usted” murojaat shaklini, xushmuomalalik vositalarini) tanlash, onlayn muloqot va madaniyatlararo mediatsiyani amalga oshirish;

- refleksiv komponent - o‘z stereotiplari va madaniy pozitsiyasini tanqidiy tahlil qilish, madaniyatlararo tajriba natijasida qarashlarida yuz bergan o‘zgarishlarni anglash va baholash.

Komponentlar funksional jihatdan o‘zaro bog‘liq: kognitiv komponent dunyoqarashning mazmuniy asosini, motivatsion-aksiologik komponent uning yo‘nalganligini, kommunikativ-faoliyatli komponent amaliy namoyon bo‘lishini, refleksiv komponent esa o‘zini o‘zi nazorat qilish va tuzatish mexanizmini ta’minlaydi. Masalan, “hombría” va “mardlik” konseptlarini qiyoslayotgan talaba ularning mazmunini o‘rganadi, ispan tilida so‘zlashuvchi tengdoshi bilan muhokama qiladi va dastlabki tasavvurlari qanday o‘zgarganini tahlil qiladi. Jumladan, “hombría de bien” birikmasi halollik va insofni anglatishini, “machismo” tushunchasi esa salbiy baholanishini bilish[86] talabani tayyor stereotiplardan xalos bo‘lishga undaydi.

Madaniyatlararo kognitiv dunyoqarashni shakllantirish bir-birini to‘ldiruvchi yondashuvlar integratsiyasini talab etadi:

[86] Real Academia Española. Diccionario de la lengua española. – 23.ª ed. [versión en línea]. – URL: https://dle.rae.es (“hombría”, “machismo” so‘zlik maqolalari).

- madaniyatlararo yondashuv - ta’lim mazmunini madaniyatlar dialogi g‘oyasi asosida, ispan va o‘zbek madaniyatlarini qiyoslash orqali tashkil etish;

- kompetensiyaviy yondashuv - ta’lim natijasini bilim, ko‘nikma va munosabatlar birligida hamda o‘lchanadigan ko‘rsatkichlar orqali belgilash;

- kognitiv yondashuv - o‘qitishni konseptlar, freymlar va metaforalarni tahlil qilish orqali talabaning bilish sxemalarini kengaytirish jarayoni sifatida loyihalash;

- aksiologik yondashuv - umuminsoniy va milliy qadriyatlar uyg‘unligini ta’minlash, o‘z madaniy o‘zligini saqlagan holda o‘zgani qabul qilishga o‘rgatish;

- raqamli-pedagogik **yondashuv** - raqamli muhitni oddiy axborot manbai emas, balki autentik resurslar, virtual almashinuv, til korpuslari va sun’iy intellekt vositalari orqali madaniyatlararo bilish faoliyati kechadigan pedagogik makon sifatida loyihalash, raqamli axborotga, jumladan, sun’iy intellekt taqdim etgan madaniy tavsiflarga tanqidiy munosabatni shakllantirish.

Tahlil asosida quyidagi xulosalarga kelindi. Birinchidan, madaniyatlararo kognitiv dunyoqarash madaniyatlararo kommunikativ kompetensiya, madaniyatlararo sezgirlik va plyurikultural kompetensiya bilan uzviy bog‘liq bo‘lsa-da, shaxsning madaniy hodisalarni idrok etish va baholash tizimining ichki, qadriyatli-bilish darajasini ifodalashi bilan ulardan farqlanadi. Ikkinchidan, uning tuzilmasi kognitiv, motivatsion-aksiologik, kommunikativ-faoliyatli va refleksiv komponentlardan iborat bo‘lib, ispan tili ta’limida ular madaniy konseptlarni qiyosiy o‘rganish jarayonida integratsiyalashadi. Uchinchidan, shakllantirish jarayonining metodologik asosini madaniyatlararo, kompetensiyaviy, kognitiv, aksiologik va raqamli-pedagogik yondashuvlar integratsiyasi tashkil etadi. Bu asoslar raqamli ta’lim muhitidagi pedagogik model va uning diagnostik mezonlarini ishlab chiqish uchun tayanch bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni. - URL: https://lex.uz/docs/4545884

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni. - URL: https://lex.uz/docs/5841063

3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari: monografiya. - Toshkent: Fan, 2007.

4. Jalolov J.J. Chet til o‘qitish metodikasi. - Toshkent: O‘qituvchi, 2012.

5. Xalillayev A.K. Ispan va o‘zbek tillarida “hombría”/“mardlik” konsepti qo‘llanishining lingvokognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari: filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. - Toshkent, 2022.

6. Вербицкий А.А. Цифровое обучение: проблемы, риски и перспективы // Электронный научно-публицистический журнал «Homo Cyberus». - 2019. - № 1(6). - URL: http://journal.homocyberus.ru/Verbitskiy_AA_1_2019

7. Маслова В.А. Лингвокультурология: учеб. пособие. - М.: Академия, 2001. - 208 с.
8. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. - М.: Слово/Slovo, 2000. - 624 с.
9. Bennett M.J. A developmental approach to training for intercultural sensitivity // International Journal of Intercultural Relations. - 1986. - Vol. 10, No. 2. - P. 179-196.
10. Byram M. Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence. - Clevedon: Multilingual Matters, 1997. - 124 p.
11. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. Companion Volume. - Strasbourg: Council of Europe Publishing, 2020. - 278 p.
12. Deardorff D.K. Identification and Assessment of Intercultural Competence as a Student Outcome of Internationalization // Journal of Studies in International Education. - 2006. - Vol. 10, No. 3. - P. 241-266.
13. Instituto Cervantes. Plan curricular del Instituto Cervantes. Niveles de referencia para el español. - Madrid: Biblioteca Nueva, 2006.
14. Kramsch C. Context and Culture in Language Teaching. - Oxford: Oxford University Press, 1993. - 295 p.
15. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. - Chicago: University of Chicago Press, 1980.
16. O’Dowd R. From telecollaboration to virtual exchange: state-of-the-art and the role of UNICollaboration in moving forward // Journal of Virtual Exchange. - 2018. - Vol. 1. - P. 1-23.
17. Real Academia Española. Diccionario de la lengua española. - 23.ª ed. [versión en línea]. - URL: https://dle.rae.es